


**Surxondaryo viloyati IIB Transportda
xavfsizlikni ta'minlash
boshqarmasining "Ma'rifat" xonasi
kaliti Termiz shahar ma'naviyat va
ma'rifat bo'linmasiga tantanali
ravishda topshirildi**

Image not found or type unknown



Surxondaryo viloyati IIB Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining "Ma'rifat" xonasi kaliti Termiz shahar ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasiga tantanali ravishda topshirildi

Surxondaryo viloyati IIB Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi "Ma'rifat" xonasida joriy yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishida belgilab bergan vazifalarni to'liq va samarali ijrosini ta'minlash borasida barcha vazirlik va idoralarda keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotgani xususida tadbir o'tkazildi. Ayniqsa, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va Ichki ishlar vazirligi bilan "Hamkorlik va istiqboldagi vazifalar" mavzusidagi o'zaro hamkorlik memorandumining imzolanishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'ldi. Surxondaryo viloyati IIB Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasida tashkil etilgan tadbirda hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar va istiqbolli vazifalar haqida so'z yuritildi. Tadbir davomida shahar Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasiga viloyati IIB Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi boshlig'ining ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari podpolkovnik Nurkeldiev Alisher Juraevich tomonidan "Ma'rifat" xonasining kaliti tantanali ravishda topshirildi. Aytish joizki, ma'naviyat insonning o'zligini anglatuvchi betakror mo'jizaviy kuchdir. U millatning yuzi, vijdoni, ruhidir. Amalga oshirilayotgan bu kabi ishlar mamlakatimizda aniq maqsadga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.